

O'QUVCHILARGA KOREYS TILINI O'RGATISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH**G'afforova Iroda Zayniddin qizi***Filologiya va tillarni o'qitish (koreys tili yo'nalishi) 1-kurs talabasi SamDChTI
sharq fakulteti*Phone number: +998937225728,
e-mail: gaffarovairoda777@gmail.com**Annotation**

This article is about teaching students the Korean language using interactive methods. The great importance attached to the Korean language in the Republic of Uzbekistan and the innovative technologies required for their study are highlighted.

Key words

foreign language, Korean language, game, innovative technological tools, methods, techniques, interactive game "crocodile", "domino", "role-playing" games. Damino, Rolli o'yinlar.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarga koreys tilini interaktiv usullardan foydalanib o'rgatish, shuningdek O'zbekiston Respublikasida koreys tillariga berilgan katta ahamiyati hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

chet tili, koreys tili, o'yin, innovatsion texnologiya, interaktiv usullar, texnologik vositalar, usullar, metodlar, «Timsohcha» interfaol o'yini, Damino, Rolli o'yinlar.

Hozir biz yashayotgan jamiyat kundan kunga rivojlanib, chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, faqat bog'cha yoshidagi bolalar yoki maktab o'quvchilari emas, balki, katta yoshdagi mutaxassislargacha til o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, biz xorijiy tillarni o'rganish bilan bir qatorda o'sha tilda gaplashuvchi xalqning turmush tarzi, madaniyati, tarixi va urf-odatlarini, dunyoqarashini ham bilib boramiz. Yana shaxsiy manfaatlar yo'lida yaqindan tanishib borish uchun ham imkoniyat eshiklari ochilishiga zamin yaratishimiz mumkin. Xattoki, mashhur ruhshunos olimlar ham xorijiy tillarni o'rganish inson dunyoqarashini qisman bo'lsada, o'zgartirish xususiyatiga ega deb fikr bildirganlar.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875-sonli PQ qarori qabul qilindi. Bu esa yosh avlodni chet tillariga qiziqishini uyg'otdi.

Shundan keyin bu sohani yanada takomillashtirish va sifatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4680-sonli qarori ishlab chiqildi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining: 2020/2021 o'quv yilidan boshlab Universitetlarga o'qishga qabul qilishda faqat chet tili (ingliz tili) emas, balki, sharq tillari (turk, arab, fors, dari, hind, koreys, yapon, xitoy tillari) topshiriladigan ko'p balli tizim bo'yicha imtihonlar o'rniga test sinovlari o'tkazilish yo'lga qo'yildi. Hamda Toshkent davlat jahon tillar universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutlarida koreys tili yo'nalishi uchun ajratilgan kvotalar etish talab etiladi.¹

soni 200 nafarga yetdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bizning mamlakatimizda ham koreys tiliga bo‘lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda.

Respublikamizda koreys tilining o‘qitilishi, koreys tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumosiyo ramkalari tavsiyanomalari (TOPIK)ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra universitet talabalari uchun darsliklar yaratildi. Koreys tili ham boshqa chet tilliga o‘xshab to‘rt aspektga (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo‘linib, ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berilmoqda. Hayotimizning har sohasi texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda, ta‘lim ham bundan mustasno emas. Ta‘lim texnologiyalari, bu ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir, shuningdek, ta‘lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutiladi. Xususan, koreys tilini o‘rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Texnologik vositalardan foydalanish koreys tili o‘rganishning har bir aspekt (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo‘l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta limitlariga qat‘iy rioya kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Masalan, o‘quvchi yoshlar o‘rtasida keng ommalashgan koreya dramalarini olsak. Bu dramalarni ko‘rganda qahramonlarning gapirishi hatti-harakati orqali ularni oson tushunish mumkin. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi yoshlarning tinglash va gapirish mahoratini oshiradi. Bunda o‘quvchi bir paytning o‘zida so‘zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so‘z boyligi va uning ma‘nolariga e‘tibor berishi talab qilinadi. Koreys tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samadorli usullardan biridir.

Bu texnik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning koreys tilini o‘rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishini ta‘minlaydi. Bugungi kunda darslarni interfaol o‘yinlar orqali o‘tish an‘anaga aylanib bormoqda. Chunki faqat kitob asosida dars o‘tilsa o‘quvchi darsdan zerikib qoladi va darsga diqqat e‘tiborini qaratmaydi. Tabiiyki bolalar o‘yinlarga qiziqadi. Agar dars har xil o‘yinlar orqali tushuntirilsa bu darsga qiziquvchilar bolalar soni ko‘payadi. Ma‘lumki , darsning turli xil o‘yinlar asosida o‘tilishi o‘quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko‘nikmalarini oshirish va kuchli bo‘lishlarini ta‘minlaydi. Dars o‘tishda o‘qituvchi har xil qiziqarli o‘yinlardan foydalanib o‘tishi kerak. Har qanday o‘yin zamirida umumiy qabul qilingan ta‘lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O‘quv o‘yinlariga o‘quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O‘yinlar jarayonida o‘quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg‘ulotga qiziqibroq yondashadi va bimalol faoliyat ko‘rsatadi. Ta‘kidlash lozimki, o‘yin eng avvalo, o‘qitishning bir usulidir. O‘quvchilar o‘yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g‘alaba qozonishga intiladilar, o‘qituvchi ular orqali o‘quvchiga ta‘lim-tarbiya ham beradi. Biz bilamizki, hozirgi ta‘lim jarayonida o‘quvchi sub‘ekt bo‘lishi lozim. Bunda ko‘proq interfaol metodlarga e‘tiborni qaratish ta‘lim samaradorligini oshiradi. Koreys tili darslariga qo‘yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir.

Bugungi kunda koreys tili o‘qituvchilari zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda quyidagi integrativ usullardan foydalanib kelishmoqda:

–»Timsohcha” interfaol o‘yini. Bunda o‘quvchilar ikki guruhga bo‘lingan holatda bir biriga qarshi kuch sinashadi. O‘qituvchi tomonidan doskaga koreys tilida matn yopishtirilib qo‘yiladi va oxirgi partaga oq qog‘oz bilan ruchka qo‘yiladi, guruhdagi hamma o‘quvchi navbatma navbat bitta gapdan doskadagi matnni o‘qib orqadagi oq qog‘ozga o‘qib esida qolgan gapini imlo xatolarsiz yozishi kerak bo‘ladi. Qaysi guruh birinchi va betaxo yozgan bo‘lsa o‘sha guruh g‘alaba qozonadi. Bu o‘yin o‘quvchilarning xotirasini yaxshilaydi va koreys tilidagi so‘zlarni bexato va tez yozishiga yordam beradi.

–»Damino” interfaol o‘yini. Bu o‘yin xuddi damino o‘yini kabi o‘ynaladi. Damino taxtasi kabi kartochkalar yasab olinadi va ular ichiga koreys tilidagi ikki bo‘g‘inli so‘zlar yoziladi. O‘yinning qiziqarliligi shundaki, har bir bo‘g‘inning oxiri yangi bo‘g‘inning boshi bo‘ladi. Bu interaktiv usul o‘quvchi yoshlarda so‘z boyligini oshiradi.

–»Rolli o‘yinlar» bu usul darsning barcha tiplarida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, darsda o‘tilgan bironda ibora qatnashgan sahna ko‘rinishlari yoki o‘sha ibora qatnashgan kino yoki seriyallardan parcha qo‘yilishi mumkin. Bu usul o‘quvchi yoshlarda gapirish nutqini hamda aktyorlik mahoratini oshiradi.

Ko'rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Agar har bir o'qituvchi o'z darslarini mana shunaqa interfaol o'yinlar orqali o'tsa, dars yanada qiziqarli va esta qolarli bo'ladi. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Xulosa qilib aytganda, koreys tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqishimiz bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Qo'llanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdab takomillashtirishva ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4680-sonli qarori.

3.Муминова, Ф. М. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / Ф. М. Муминова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592. — URL:

4.Avazbek Vohidov, Hulkar Mirzaxmedova "Sharqshunoslikka kirish" o'quv qo'llanmasi.

5.<https://hozir.org/ozbekistonda-talim-tizimida-islohotlar-va-innovatsiyalar.html?page=2>